

**MAMLAKATIMIZDA IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASINI
ISHLAB CHIQISHDA XORIJ TAJRIBASI: JANUBIY KOREYA DAVLATI
MISOLIDA**

Nasrulloev Hikmatullo Xabibulloevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil taddiqotchisi

Annotatsiya

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sohasidagi strategik dasturlar iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning asosiy tashabbuslari hisoblanadi. Janubiy Koreya misolida iqtisodiyotni raqamlashtirish sohasidagi strategik dasturlarni o‘rganish, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal etish va strategik dasturlarni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini shakllantirish usullari aniqlandi, strategik dasturlarni ishlab chiqishdagi maqsad hamda ustuvorliklar tahlil qilingan, o‘zaro solishtirilgan va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot strategiyasi, innovatsion rivojlanish, Koreyaning yangi yo‘nalishi, intensiv yo‘nalish, qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik va dinamik usullar, formal-mantiqiy usul.

Kirish:

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining rivojlantirib borilishi ko‘plab mamlakatlarning ilmiy, ishlab chiqarish va innovatsion siyosatini amalga oshirish maqsadlari yo‘nalishini aniqlash, ishlab chiqish va amalga oshirish usullari hamda vositalariga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jahon amaliyotida raqamli transformatsiyani shakllantirish va amalga oshirishning turli darajadagi intensiv yo‘nalishlarini (tarmoqlar va hududlar) tanlashda ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni raqamlashtirish jarayoni innovatsion rivojlanishning asosiy bosqichi bo‘lganligi bois mamlakatning umumiyligi innovatsion siyosati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi zarur.

Janubiy Koreya dunyo hamjamiyatida innovatsion rivojlanishda etakchi o‘rinlarda bo‘lgan davlat sifatida hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish borasidagi tajribasi bilan namuna bo‘lib kelayotgan mamlakat hisoblanadi.

Koreya Respublikasi 2014-2019 yillarda muntazam yuritiladigan Bloomberg Innovation Index reytingida etakchilik qilib keldi. 2020 yilga kelib, bu reytingda Germaniya etakchilik qildi, bir yildan so‘ng o‘z maqeini qayta tiklab, yana dunyoda birinchi o‘ringa chiqib oldi. Koreya Respublikasi raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha takomillashib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori mavjud, dunyoda birinchi bo‘lib

umummilliy miqyosda 5G ning joriy etgan, rivojlangan raqamli infratuzilmaga ega, umumiylar foydalanishda aholiga yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi etakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Ayni vaqtida Janubiy Koreya o‘zining innovatsion iqtisodiy rivojlanish siyosatini fan-texnika yutuqlarini qo‘llash, mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy omili ekanligini ta’kidlagan holda olib bormoqda. Mamlakatda 2020 yilda qabul qilingan “Korean New Deal” konsepsiyasini amalga oshirishda iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini tadqiq etish bo‘yicha joriy etilgan strategik dasturlar majmuasi uchta asosiy yo‘nalishga yo‘naltirilgan:

raqamlashtirish, ekologik toza va ijtimoiy yo‘nalish (ish o‘rinlari yaratish). “Korean New Deal” (Koreyaning yangi yo‘nalishi) Janubiy Koreya davlatining raqamli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishdagi tabiiy bosqich bo‘lib, mazkur maqolaning maqsadi Sanoat 4.0 konsepsiyasiga moslashish jarayonlari boshlanishi bilan amalga oshirilgan yoki tasdiqlangan innovatsion rivojlanish strategiyalarini taqqoslash yo‘li bilan bu konsepsiyaning xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Janubiy Koreyada raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan strategik dasturlarning asosiy tasniflari, maqsadlarini tahlil qilish va taqqoslash, yuqori natijalarini egallashiga olib kelgan qonuniyatlarini aniqlash O‘zbekistonda olib borilayotgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlariga tavsiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Koreya Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha samarali tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2021 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishdi va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda raqamli infratuzilmani yaratishga faol sarmoya kiritayotgan Singapur, Gonkong va AQSh kabi etakchi davlatlar guruhiга kiritildi. Janubiy Koreyaning ko‘rsatkichlari va etakchilik mavqeining yaxshilanishi so‘nggi bir necha yil ichida samarali amalga oshirilgan raqamlashtirish siyosati bilan bog‘liq bo‘ldi.

Mamlakatning sanoat rivojlanishida yirik konglomeratlar (chebollar)ning yaratilishi va uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, ammo 1980 yillarning oxiridan boshlanib, 1990 yillarda ham davom etgan Osiyo moliyaviy inqirozidan keyin hukumatning “iqtisodiyotning faqat yirik sanoat konglomeratlariga tayanib qolishi bozordagi tebranishlarga o‘ta sezgir va ta’sirchan qilib qo‘yadi” degan xulosaga kelishi natijasida shu vaqtidan boshlab davlat siyosati bosqichma- bosqich KO‘Kni qo‘llab-quvvatlashga, shu jumladan, ularni raqamli transformatsiya jarayonlariga va yirik biznes bilan o‘rtasida hamkorlik o‘rnatishga faol jalb qilishga yo‘naltirildi. Tadqiqot va ishlanmalar innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lganligidan Koreya Respublikasida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga investitsiyalarini ko‘paytirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini (ITTKI) rag‘batlantirish hamda kichik va o‘rta korxonalarini (KO‘K) qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Xulosa va takliflar.

Quyidagi xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Janubiy Koreyaning strategik dasturlarini tahlil qilish natijalariga asoslanib, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun dolzarb bo‘lgan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

-iqtisodiy o‘sishning mumkin bo‘lgan manbai sifatida KO‘Kni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash alohida ajratib olingan holatda emas, balki yirik biznes sub’ektlari bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq;

-muayyan texnologiyalar bilan ishlashga investitsiya kiritilishi bo‘yicha to‘planib boruvchi samarani ta’minlash va olib borilayotgan islohotlarni kompaniyalar hamda jamoatchilik tomonidan qarshilik ko‘rsatilishini kamaytirish uchun innovatsion rivojlanish strategiyalari izchil tartibda o‘zgartirib borilishi lozim.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Jones R., Kim M. Fostering a creative economy to drive Korean growth. // OECD Economics Department Working Papers. 2014. № 1152. 38 p. DOI: 10.1787/5jz0wh8xkrf6-en.
2. The global competitiveness report 2020. How countries are performing on the road to recovery. Special ed. / Ed. by K. Schwab, S. Zahidi [Электронный ресурс]. // World Economic Forum: 2020. Р. 18. URL: http://www3.weforum.org/docs/WEF_TheGlobalCompetitivenessReport2020.pdf. 18 Ibidem.
3. Korea’s 2016 Growth Strategy [Электронный ресурс]. // The G20 Research Group. 2016. P. 2-9. URL: <http://www.g20.utoronto.ca/2016/2016-growth-korea.pdf>.
4. OECD economic surveys: Korea. Overview [Электронный ресурс]. // OECD. 2020. P. 35. URL: <https://www.oecd.org/economy/surveys/korea-2020-OECD-economic-survey-overview.pdf>.
5. Нормурзаев У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954